

TALABALARNI YANGI BILIMLARNI O'RGANISHGA UNDOVCHI VA ULARNING O'ZLASHTIRISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

N.I.Saydullayeva

JDPI o'qituvchisi

D.U.Ergasheva

JDPI talabasi

Annotatsiya

Maqolada talaba shaxsi, o'rganish jarayoning mohiyati, talabalarni yangi bilimlarni o'rganish jarayoniga undovchi va ularni yangi bilimlarni o'zlashtirishlariga ta'sir etuvchi omillar, aksariyat talabalarning maxsus kasbiy fanlarga nisbatan loqaytliklarining asosi, talabalarni yangi bilimlarni o'zlashtirish va o'rganish jarayoniga qiziqtirishning inovatsion modeli sifatida ta'lim tizmiga ta'lim, tabiyyat atamasi qatorida e'tiqod atamasini kiritish taklifi masalalari yoritilgan.

Abstract

The article deals with the student's personality, the essence of the learning process, the factors that motivate students to learn new knowledge and influence their acquisition of new knowledge, the basis of indifference of most students to special professional disciplines, the acquisition and learning of new knowledge as an innovative model of interest in the process of education, the proposal to introduce the term belief in the system of education, along with the term nature.

Аннотация

В статье рассматриваются личность студента, сущность учебного процесса, факторы, побуждающие студентов к изучению новых знаний и влияющие на получение ими новых знаний, основы безразличия большинства студентов к специальным профессиональным дисциплинам, усвоение и освоение новых знаний. знания как инновационная модель

интереса к процессу обучения, предложение ввести термин вера в систему образования наряду с термином природа.

Kalit so'zlar : talaba, o'rganish, bilim, omil, o'zlashtirish, ta'lim, tarbiya, etiqod.

Talaba so'zi arabchadan olingan bo'lib izlovchi, o'rganuvchi kishi ma'nosini anglatadi. Turkistonda muqaddas din – “Islom” dinining yoyilishi natijasida, boshlang'ich maktablardan so'ng bilim olish bilan mashg'ul bo'lgan har bir kishi talaba, tolib deya xisoblangan. Keyinchalik madrasalar paydo bo'lgan va unda tahsil olayotgan kishilargina talaba deyila boshlangan.

Yevropada XI XII asrlarda saboq beruvchi va saboq oluvchi kishilar majmuyiga talabalar (student) deb atalgan. Keyinchalik ta'lim oluvchilar uchun magistrlik, professorlik va ilmiy unvonlarning joriy etilishi, faqat saboq oluvchi kishilarni talaba deya yuritilishiga asos bo'lgan.

Uman olganda ikki yirik ta'limiy farazlarda ham bir biriga bo'lgan bog'liqlik, bir asosiy tushuncha mavjud.

Zero talaba jamiyat taraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan, ayni vaqtda, har bir mamlakatning ilmiy intellektual salohiyat darajasini bildirib, rivojlanish isdiqbollarini belgilab beradi. Mamlakat iqtisodi, madaniyatining yuksalishi, ilmfan yutuqlarining joriy etilishi uchun oiliy dargoh talabalarida chuqur nazariy, hamda amaliy bilim, ko'nikma va malakalarning bo'lishini talab etadi. Buning uchun talabalarda yangi bilimlarni o'rganishga bo'lgan undovchi va ularni o'zlashtirishga ta'sir etuvchi omillarning o'rni beqiyosdir.

„O'rganish”-shaxsning yangi turdagi ma'lumotlari o'zlashtirishi, yoki unda mavjud bo'lgan xulq-atvorning o'zgarishidir. O'rganish jarayoni talabalarda turli undovchi omillar orqali kechadi. Jumladan, atrofdagi kishilarning o'zaro munosabatlari, o'qituvchilarning yangi bilimlarini namoyish etishi, badiiy hamda imiy, ommabop asarlar mutoalasi, vertual olamdagi informatsiyalar, yangi muhit va shu muhitdagi raqobat, yoshning hamda ongning ulg'ayishi natijasidagi yaxshi kelajak uchun say-harakatlar, jamiyat rivojiga bo'lgan ma'suliyat va boshqalar.

O'rganishning natijaviyligi talabalarda o'z fikriga ega bo'lish, muammo hamda turli jarayonlarni chuqur tahlil qila olish, idrokning rivojlanishi, bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlanishi, yangi xulq shakillarini namoyon bo'lishi, natijalarni muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun asos bo'ladi.

Talabalarni yangi bilimlarni o'rganishlarining quyidagi omillari mavjud:

- birinchidan, odati tufayli yuzaga keladigan omil. Ushbu omil talaba shaxsdagi yillar davomida hosil bolgan shartli refleks yoki uning hayotidagi yaqinlari tominidan klassitik shakllantirish orqali yuzaga kelgan sifatlar bilan tavsiflanadi.

Odatlar tufayli yuzaga keladigan omilning ijobiy taraflari talaba shaxsiga ma'sulyatlilik, rejaviylik sifatleri shakllanishi, aniq bir maqsadni ko'zlay olishi, shartli reaksiyalari yordamida baxtsiz hodisa va muvaffaqiyatsiz yakunlovchi natijalarni oldini olishga qaratilgan xulq turlarini paydo bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Shu omilning salbiy tomoni, muvaffaqiyatsizlik natijasida ongdagi chuqur tushkunlik, tartib qoidalar natijasida yaratuvchanlik sifatleriga aksariyat holatlarda yo'l bermaslik, kryativ hamda ijodiy sifatlerini ravnaq topmasligi uchun zamin bolishi ham mumkin.

- ikkinchidan, taqlid orqali organish omili. Talabalarning yangi bilimlarni o'rganishlari uchun turtki bo'ladigan taqlid jarayoni, bevosita taqlid qilayotgan shaxsdagi (namunali o'qituvchilarga, tashabbuskor tengdoshlarga, talabchan ota-ona)xulqiy namunalarni qabul qilish va xuddi o'shanday taqlid qilishdir. Bu jarayon o'rganuvchilarga ongli yoki ongsiz ravishdagi bilm va ko'nikmalarni o'zlashtirishiga sabab bo'lib qolishi mumkin. Bu o'rganish turi oddiy jarayonlarni o'zlashtirishda eng samarali , ammo, butun bir hayotdagi o'rganish jarayonlarida qo'l kelavermasligi mumkin.

Masalan, talabaning bolalikdan o'zi uchun mukammal xisoblangan ustoziga taqlid qilishi, yoki ko'p muvaffaqiyatlarga erishgan do'stiga taqlid jarayonini butun bir hayotiga , yangi bilimlarni egallashdagi jarayon va uslublarini o'ziga singdirib olishi , bu yo'lda o'zidagi individual sifatlerini yo'qotishga bo'lgan say-harakatlar o'zligining yo'qolishiga, qiziqish va undagi individual ajratib turuvchi layoqatni, qobilyatlarni so'nishiga ,yoki shu qobilyatlarni anglay olmasligiga, rivojlanmasligiga, taqlid qiluvchi insonning ongsiz ravshdagi soyasiga aylanib qolishiga , o'sha insondagi barcha xato va kamchiliklarni o'zida takrorlashiga olib kelishi mumkin. Ijobiy holatlarda esa taqlid qilayotgan insonning o'rganish faoliyatidagi intiluvchanligi, rejaliigi, intizomlilik va boshqa ijobiy xislatlerini o'zining individual xislatleri bilan uyg'unlashtirish o'rganish jarayonida mukamallik sari yetaklaydi.

- Uchinchidan, muvaffaqiyatlar tufayli o'rganish omili. Talabalarni yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi rag'batlantirishlar, ularni qo'lga kiritgan yutuqlaridang'ururlanish xisi yangi bilimlarni o'rganishda va

o'rganan bilimlarini amaliyotga tadbiiq etishda odatdan o'zgacha ko'rinishda tadbiiq etish uchun asos bo'lishi mumkin.

Ko'p kuzatishlarimiz natijasida o'rta yoki past o'zlashtirishga ega bo'lgan talabalarining oddiy vazifalarni bajarishlarini , yoki bilimlarni o'zlashtirish , o'rganish jarayonidagi oz miqdordagi harakatlarini rag'batlantirish, ularga nisbatan befarqlik yoki jazodan ko'ra yaxshiroq usul bo'lib hizmat qilishi va bu usul talabani yangi bilimlarni o'zlashtirishga nisbat omil ,turtki sifatida shakllanishi mumkin.Biroq muvaffaqiyatlar talaba shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatishini ham ko'rish ,aynan men hissini ortib ketishi, muvaffaqiyatlaridan havolanib ketishi bu esa o'z –o'zidan yangi bilimlarni o'rganishga nisbatan maqsadni ,intilishni tushib ketishiga , talabani izlanishdan qotib qolishiga olib kelishi mumkin.

- To'rtinchidan,urinish,xato qilish,qayta urinib ko'rish va muvaffaqiyat omili.Bunday usulda o'rganish talabaning iroda sifatlariga bog'liq . Bu omildan foydalanuvchi talabalarni nemis adibi Bertold Brextning “Kim harakat qilsa mag'lubiyatga uchrashi mumkin ,lekin harakat qilmasa mag'lubiyatga uchrashi anniq” shioriga amal qiluvchi shaxslar deya qarashimiz mumkin.Ular muvaffaqiyatga erishadimi yoqmi harakat qilib ko'rishadi, har daqiqa tajriba va malakasini oshirish yo'lida izlanishda bo'lishadi.

Urinish,xato qilish,qayta urinib ko'rish va muvaffaqiyat omili operativ shartlanish bilan bog'liq , ammo bu yerda dastlab muvaffaqiyat hissi shart emas. Bu usul murakkab vaziyatlarni hal qilishi kerak.(masalan: notanish kalit so'zlarini yig'ish natijasida to'g'ri butunlikni hosil qilish) Bunda muvaffaqiyatsiz bo'lgan yechimlar keyinchalik to'g'irlash uchun qaytarilmaydi, ammo urunib ko'rish shaxs malakasini ortishiga , o'rganish jarayonida fikrlash va tassavur etishga, bilish jarayonini kuchayishiga olib kelishi , urunib ko'rishning o'zi shaxsda qayta urinishning bo'lmasligiga nisbatan muvaffaqiyatga olib keladi.Quyidagi omil ko'plab vaqtning sarflanishini talab etadi. Natijada qisman yoki to'lliq muvaffaqiyatga erishiladi va muvaffaqiyat yo'li uzoq vaqtgacha xotirada eslab qolinadi.

- Beshinchidan, anglash tushunib yetish orqali o'rganish omili.Yuqoridagi omil vaziyatni faraz qilib o'rganish, tasavvurda tasvirlash, gavdalantish orqali namoyon bo'ladi. Bunday omildan foydalanuvchi insonlar sinchikov yoki yaxshigina tassavur doirasiga , yoki irsiyatga ega shaxslar hisoblanishadi.

Talabalardagi yaqin kelajakdagi kasbiga nisbatan loqaytlik maxsus fanlarni o'zlashtirishga nisbatan befarqlikdadir.

Kasbiy faoliyatga kirishish kasbga doir chuqur bilimlarni bilishni, bilish uchun esa maxsus kasbiy fanlarni yaxshigina o'zlashtirish zarurligini taqozo etadi. Xalqimizda "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" degan naql bor, ushbu naqlni kelajakdagi kasbga nisbatan befarq talabalarga nisbatan ishlatish tarafdoriman. Chunki talaba kelajak poydevori, har qanday sohada bo'lmasin jamiyatimiz rivojiga o'z xissasini qo'sha oladigan shaxs. Ular ma'lum pedagoglar tomonidan qat'iy rejmda ta'lim olishi yoki ta'lim olganlik darajasini sinamalar asosida tekshiruvga asoslanib qolmasliklari, vijdonan ta'lim – tarbiya jarayoniga kirishuvi zarur. Buning uchun ta'lim – tarbiya jarayoniga "e'tiqod" tushunchasini ham ajralmas juftlik sifatida kiritishimiz lozim.

E'tiqod tushunchasi inson tanasiga muhabbat, sadoqat kabi ko'zga ko'rinmas mavhum tushunchalar bilan ifodalanadi. Ma'lum bir sharoitda, vaziyatda, muhitda tarbiyalangan insonlar vaziyatlar natijasida o'z tarbiyaviy ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. E'tiqodli shaxsni sharoitlar, vaziyatlar o'zgartira olmaydi. Kasbiy faoliyatga doir e'tiqod, kasbiy faoliyatni egallashga bo'lgan munosabat, muhabbat, ma'suliyat e'tiqod bilan mustahkamlanadi. Ammo shaxsga, talabaga e'tiqodni ruhiyatiga singdira olmaymiz, e'tiqod uchun yo'nalish, turtki bera olamiz.

XULOSA

Maqolaning maqsadi talabalarning oliy o'quv yurtlarida o'qish jarayonida bilimlarni qabul qilish usullarini tahlil qilishdir. Ta'lim- tarbiya jarayoniga e'tiqod kategoriyasini ham kiritishni ham taklif qiladi. Muallif talabalar bilan ishlashda hamkorlik muhitini yaratishini, talaba bo'lishdan mamnunligini va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish haqida so'z yuritadi. Bularning barchasi muvaffaqiyatli ishlashga olib keladi va g'ayratni oshiradi.

Asosiy adabiyotlar

1. Innovatsion tahlil texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.X., Sayfurov D.M., Tyraev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015. – 81-b.
2. Sbornik keysov dlya vuzov po distsiplinam gumanitarnogo i sotsialg'no-ekonomicheskogo tsikla / Ucheb.-met.posobie. – SPb.: Izd-o Sankt-Peterburgskogo universiteta upravleniya i ekonomiki, 2015. – S. 3.
3. Sayidaxmedov N. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiya. – T.: Oliy pedagogika instituti, 2003.

4. Turdieva M. Oliy tahlim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. – 38-42-b.

5. Utyomov V.V., Zinkovkina M.M., Gorev P.M. Pedagogika kreativnosti: prikladnoy kurs nauchnogo tvorchestva / Ucheb.posboie. – Kirov: ANOO “Mejreginalg’no’o’TSITO”, 2013. – 212 s.

6. Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – ykituvchi kasbiy maxoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta’lim j. – T.: 2006. 6-son. – 102-b.

Qo’shimcha adabiyotlar

Mirziyoev SH.M. “Konun ustuvorligi va inson manfaatlarini

tahminlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi

Yzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga barishlangan tantanali marosimdagi mahruzasi. – T.: “Yzbekiston”, 2017. – 48b.

2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, kathiyl tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bylishi kerak. –T.: “Yzbekiston”. – 2017.– 102b.

3. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga kuramiz.-Toshkent.: “Yzbekiston”. 2017.-488 b

Axborot manbaalari

www.ziyonet.uz

www.edu.uz

www.edagog.uzwww.tdu.uz